# IMRAD MODELI ASOSIDA ILMIY MAQOLANING KOMPOZITSION-DISKURSIV TUZILISHI VA QISMLARARO SEMANTIK IZCHILLIGI

**Maxmudova Sabinabonu Raxmatilla qizi**
Andijon davlat chet tillar instituti doktoranti
sabinamaxmudova2000@gmail.com
**DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23882182**

**Annotatsiya:** Tezisda ilmiy maqolaning matnoldi, asosiy matn va matnorti qatlamlari hamda ularning vazifaviy bog‘lanishi yoritiladi. IMRaD tuzilmasi, muqobil kompozitsion modellar va diskursiv-kompozitsion tahlil mezonlari umumlashtiriladi.

**Kalit so‘zlar:** ilmiy maqola, kompozitsiya, annotatsiya, IMRaD, dalillash, diskursiv tahlil.

**Abstract:** The thesis examines the prefatory, main-text and post-textual layers of a research article and their functional coherence. It outlines the IMRaD structure, alternative organizational patterns and criteria for a discursive-compositional analysis.

**Keywords:** research article, composition, abstract, IMRaD, argumentation, discourse analysis.

**Аннотация:** В тезисе рассматриваются предтекстовый, основной и послетекстовый компоненты научной статьи и их функциональная связь. Обобщаются структура IMRaD, альтернативные композиционные модели и критерии дискурсивно-композиционного анализа.

**Ключевые слова:** научная статья, композиция, аннотация, IMRaD, аргументация, дискурсивный анализ.

Ilmiy maqola muayyan tadqiqot muammosi, materiali, tahlil jarayoni va natijasini nisbatan ixcham, dalillangan hamda tekshiriladigan shaklda ilmiy hamjamiyatga taqdim etuvchi yozma ilmiy-tadqiqot janridir. Uning vazifasi natijani qayd etish bilangina cheklanmaydi: maqola yangi fikrning mavjud bilimlar tizimidagi o‘rnini ko‘rsatadi, yangiligi va ishonchliligini asoslaydi hamda boshqa tadqiqotchilar uchun tekshirish imkonini yaratadi. Shu bois ilmiy maqolaning kompozitsiyasini matnoldi, asosiy matn va matnorti qatlamlarning vazifaviy birligi sifatida tavsiflash mumkin.

Matnoldi qatlam maqolani tanishtiradi, mavzu chegarasini ko‘rsatadi va bibliografik qidiruvda topilishini ta’minlaydi. Unga sarlavha, muallif haqidagi ma’lumot, annotatsiya va kalit so‘zlar kiradi. Sarlavha obyekt yoki asosiy ilmiy munosabatni ixcham va aniq ifodalashi lozim: ortiqcha umumiylik tadqiqot chegarasini xiralashtiradi, ortiqcha tafsilot esa markaziy mazmunni susaytiradi. B.Mensh va K.Kording sarlavha maqolaning asosiy ilmiy hissasiga xizmat qilishi zarurligini ta’kidlaydilar. Muallif ma’lumoti esa natijaning kimga tegishliligi, tashkilot mansubligi va akademik mas’uliyatni belgilaydi [5,7].

Annotatsiya maqolaning muammosi yoki maqsadi, yondashuvi, asosiy natijasi va xulosasini mustaqil tushuniladigan ixcham shaklda beradi. J.Hartli ko‘rsatganidek, ruknlangan annotatsiya maqsad, metod, natija va xulosani tez ajratishga yordam beradi, lekin axborotga boylik ixchamlik bilan muvozanatlashishi zarur. Kalit so‘zlar esa tayanch tushunchalar, obyekt va usulni bibliografik qidiruvga mos belgilaydi. P.Potye va hammualliflar sarlavha, annotatsiya hamda kalit so‘zlar maqolaning topilishi va dastlabki baholanishida birgalikda xizmat qilishini qayd etadilar. Masalan, sarlavhada qiyosiy tadqiqot va’da qilinsa, annotatsiyada qiyos materiali va mezoni aniq ko‘rinishi lozim [6,3].

Matnoldi komponentlar o‘zaro muvofiq bo‘lishi zarur. Sarlavhada til birliklarining qiyosiy tahlili ko‘rsatilsa, annotatsiyada qaysi til materiallari qiyoslangani, qanday mezon tanlangani va qaysi natijaga erishilgani aniqlashtiriladi. Kalit so‘zlarda esa aynan shu tadqiqotning markaziy tushunchalari barqaror ifodalanadi. Aksincha, sarlavha, annotatsiya va kalit so‘zlarda asosiy obyekt turlicha nomlansa, o‘quvchi maqola mazmunini noto‘g‘ri tushunishi mumkin. Shu ma’noda matnoldi qatlam texnik bezak emas, mutaxassis adresatni tadqiqotga yo‘naltiruvchi tarkibiy qismdir.

Asosiy matn ilmiy muammo, dalillash yo‘li, natija va talqinni izchil ochadigan markaziy qatlamdir. Empirik maqolada kirish, metod, natijalar va muhokama vazifalari farqlansa, nazariy maqolada muammo, mavjud qarashlar, muallif dalillashi va nazariy xulosa; sharh maqolasida esa manbalarni tanlash, qiyoslash va ilmiy bo‘shliqni aniqlash ustuvor bo‘ladi. Matnorti qatlam adabiyotlar ro‘yxati, izoh, ilova, ayrim hollarda moliyalashtirish, manfaatlar to‘qnashuvi va ma’lumotlarning ochiqligi haqidagi qaydlardan tashkil topadi. Adabiyotlar ro‘yxati yangi fikrni avvalgi tadqiqotlar bilan bog‘lab, havolalarni tekshirishga xizmat qiladi.

Matnning asosiy qismlari ham bir-biriga mantiqan bog‘lanadi. Kirishda qo‘yilgan savolga metodda tavsiflangan yo‘l orqali javob izlanadi, natijalarda esa aynan shu yo‘l bilan olingan dalillar keltiriladi. Muhokama dalillar nimani anglatishini ochishi, xulosa esa ko‘tarilgan muammo bo‘yicha asosiy hukmni umumlashtirishi lozim. Metodda ko‘rsatilmagan amaldan olingan natija yoki natijalarda keltirilmagan dalilga tayangan talqin ichki uzilishga sabab bo‘ladi. Shu bois ilmiy maqolaning sifati faqat bo‘limlarning mavjudligi bilan emas, ular o‘rtasidagi funksional izchillik bilan baholanadi.

Zamonaviy ilmiy maqolalarda keng tarqalgan IMRaD modeli Introduction (kirish), Methods (metodlar), Results (natijalar) va Discussion (muhokama) qismlarini ajratadi. L.B.Sollachi va M.G.Pereyra ushbu tuzilmaning XX asr ikkinchi yarmida tibbiyot jurnallarida bosqichma-bosqich barqarorlashganini ko‘rsatganlar. Model mohiyati bo‘lim nomlarini mexanik takrorlashda emas, balki ilmiy ishning mantiqiy vazifalarini ajratishda namoyon bo‘ladi. K.A.Mak xulosani ham alohida qism sifatida tavsiflaydi; shu bois xulosa bilan kengaytirilgan ko‘rinishni shartli ravishda IMRaD+C deb belgilash mumkin [7,364].

Kirish (Introduction) tadqiqot muammosini, uning dolzarbligini va maqola bajaradigan vazifani asoslaydi. J.M.Sveylz kirish mantiqini tadqiqot sohasini belgilash, mavjud bilimdagi bo‘shliqni ko‘rsatish hamda yangi izlanishning o‘rnini aniqlash orqali izohlaydi. Shuning uchun kirishda mavzu chegaralanadi, aloqador manbalar umumlashtiriladi, hal qilinmagan jihat ko‘rsatiladi va tadqiqot maqsadi aniqlashtiriladi. Bu yerda manbalar miqdori emas, ularning ilmiy savolni asoslashdagi vazifasi muhim [8,140].

Metodlar (Methods) qismi natija qaysi material va mezonlar yordamida olinganini ko‘rsatadi. Unda material manbasi, tanlash tamoyili, tahlil birligi, usul va tekshiruv tartibi tavsiflanadi. E.Kotos, S.Haffman va S.Link metodlar bo‘limidagi ritorik harakatlarni tahlil qilib, tadqiqot sharoiti, ma’lumotni yig‘ish-tahlil qilish jarayoni hamda metod tanlovini asoslash muhimligini ko‘rsatganlar. Filologik maqolada, masalan, ingliz va o‘zbek ilmiy matnlari qiyoslansa, aynan qaysi matnlar tanlangani, ularning qiyoslanuvchanligi va birliklar qanday tasniflangani ochiq berilishi zarur [1,90]. B.Mensh va K.Kording natijalarning ketma-ketligi markaziy ilmiy da’voni dalillar yordamida bosqichma-bosqich asoslashini ta’kidlaydilar. Masalan, ilmiy matndagi birliklarni qiyoslashga bag‘ishlangan tadqiqotda birinchi natija ularning uchrash doirasini, ikkinchisi vazifaviy farqlarini, uchinchisi ushbu farqlarga doir misollarni ko‘rsatishi mumkin. Muhokamada esa shu tafovutlarning sababiga oid talqin bildiriladi. Bunda “aniqlandi” va “shundan kelib chiqib talqin qilinadi” mazmunlari aralashmasligi lozim: birinchisi material asosidagi natija, ikkinchisi muallifning ilmiy izohidir.

Natijalar (Results) bo‘limida savolga bevosita javob beruvchi dalillar, misollar va ko‘rsatkichlar mantiqiy izchillikda taqdim etiladi. Muhokama (Discussion) esa natijani qayta

sanamaydi, uning ilmiy ma’nosini ochadi: dalil oldingi tadqiqotlarga qanday munosabatda, talqin qaysi chegarada amal qiladi, kutilmagan jihatlar nimani anglatadi? R.Yang va D.Allison natija, muhokama va xulosaning alohida yoki birlashtirilgan bo‘limlarda uchrashini ko‘rsatadilar; demak, ularni bo‘lim sarlavhasi emas, ritorik vazifasi farqlaydi. Xulosa (Conclusion) esa asosiy savolga umumiy javob beradi, tadqiqot ahamiyati va cheklovini qayd etadi, avval keltirilmagan yangi dalilni kiritmaydi [9,383].

Nazariy va sharh maqolalarida IMRaDning barcha bo‘limlari alohida sarlavha bilan berilishi shart emas. Masalan, nazariy-konseptual maqolada muammo, tayanch tushunchalar, mavjud qarashlar, muallif dalillashi va xulosa ustuvor; sharh maqolasida manba tanlash mezoni, mavzuiy yoki xronologik sintez, bahsli jihatlar va ilmiy bo‘shliq asosiy o‘rinda turadi. Metodologik ishda esa taklif etilgan usulning imkoniyati va cheklovi muhim. K.A.Mak sharh maqolasini tadqiqotlarni oddiy ketma-ket sanash emas, tanlangan mavzu asosida tashkil etilgan tanqidiy umumlashtirish sifatida tavsiflaydi. Demak, muqobil kompozitsiya ham ilmiy tekshiruv mantiqiga bo‘ysunishi zarur.

IMRaD barcha maqolalar uchun o‘zgarmas qolip emas. L.Lin va S.Evans fanlararo maqolalarda adabiyotlar sharhi, qo‘shma natijalar–muhokama yoki alohida xulosa bo‘limiga ega tuzilmalar mavjudligini ko‘rsatadilar. Nazariy-konseptual maqola muammo - tayanch tushunchalar - dalillash - nazariy muhokama - xulosa; sharh maqolasi manbalar doirasi - mavzuiy sintez - ilmiy bo‘shliq - xulosa; metodologik maqola esa muammo - usul yoki model - asoslash - imkoniyat va cheklovlar - xulosa ketma-ketligida tuzilishi mumkin. Muqobil kompozitsiya tartibsiz bayon degani emas.1

Qismlararo nomuvofiqliklar shartli ravishda to‘rt ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Mavzuiy nomuvofiqlik sarlavha yoki annotatsiya asosiy matn markaziga mos kelmaganda, metodik nomuvofiqlik e’lon qilingan savol tanlangan material bilan tekshirilmaganda yuz beradi. Daliliy nomuvofiqlik xulosa natijalar qismida mavjud bo‘lmagan misolga tayanganda, umumlashtirishdagi nomuvofiqlik esa cheklangan materialdan ortiqcha keng hukm chiqarilganda kuzatiladi. Bu kamchiliklarni maqola yozib tugatilgach emas, reja tuzish jarayonidayoq aniqlash maqsadga muvofiq.

Ilmiy maqolaning ichki yaxlitligini qismlararo besh bog‘lanish orqali tekshirish mumkin: sarlavha → maqsad; maqsad → metod; metod → natija; natija → muhokama; muhokama → xulosa. Birinchi bog‘lanishda sarlavhadagi obyekt maqsad markazida bo‘lishi; ikkinchisida usul ilmiy savolga javob topishga xizmat qilishi; uchinchisida natija aynan tavsiflangan metoddan kelib chiqishi; to‘rtinchisida talqin natijaga tayanishi; beshinchisida xulosa daliliy doiradan tashqariga chiqmasligi lozim. Aks holda mavzuiy, metodik, daliliy yoki umumlashtirishga oid nomuvofiqlik yuzaga keladi.

Shu asosda maqola kompozitsiyasining ichki ilmiy mantiqi “muammo → tekshirish yo‘li → dalil → talqin → xulosa” zanjiri orqali ifodalanadi. Bu IMRaDning yangi nomi emas: empirik, nazariy va sharh maqolalarda bo‘limlar turlicha atalganida ham saqlanishi zarur bo‘lgan mantiqiy izchillikdir. Maqolani ikki o‘lchamda tavsiflash maqsadga muvofiq: kompozitsion o‘lcham matnoldi, asosiy va matnorti qatlamlarning joylashuvini; diskursiv o‘lcham kommunikativ maqsad, muallif pozitsiyasi, adresat, matnlararo aloqa va dalillashning shu qatlamlarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Masalan, annotatsiya joylashuviga ko‘ra matnoldi komponent, vazifasiga ko‘ra esa muallif asosiy natijani adresatga qanday yo‘naltirganini ifodalaydi. Mazkur diskursiv-kompozitsion yondashuv mutlaq yangi janr nazariyasi emas, maqola qismlarining joyi bilan ilmiy vazifasini birgalikda tekshiradigan tahliliy modeldir.

Diskursiv-kompozitsion modelning amaliy afzalligi shundaki, u ikki savolni birga qo‘yadi: muayyan komponent qayerda joylashgan va qanday vazifani bajaradi; muallif shu

[1] Lin L., Evans S., 2012, p. 150.

komponent orqali dalilni mutaxassisga qanday yo‘naltiradi? Masalan, metod asosiy matnda tadqiqot yo‘lini bayon qiladi, diskursiv jihatdan esa tekshiruvchanlikni ta’minlaydi. Adabiyotlar ro‘yxati matnorti qatlamida joylashgan bo‘lsa-da, yangi fikrning oldingi bilimlar tizimidagi o‘rnini bildiradi. Natijada maqola kompozitsiyasi qismlar yig‘indisi emas, kommunikativ maqsad va ilmiy dalillashga xizmat qiluvchi yaxlit tizim sifatida tavsiflanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cotos E., Huffman S., Link S. A Move/Step Model for Methods Sections: Demonstrating Rigour and Credibility // English for Specific Purposes. – 2017. – P. 90.
2. Hartley J. Current Findings from Research on Structured Abstracts // Journal of the Medical Library Association. – 2004. – P. 368-371.
3. Lin L., Evans S. Structural Patterns in Empirical Research Articles: A Cross-Disciplinary Study // English for Specific Purposes. – 2012. – P. 150.
4. Mack C. A. How to Write a Good Scientific Paper. – Bellingham, Washington: SPIE Press, 2018. – P. 5-6, 9, 75-77.
5. Mensh B., Kording K. Ten Simple Rules for Structuring Papers // PLOS Computational Biology. – 2017. – P. 2-7.
6. Pottier P., Lagisz M., Burke S. va boshq. Title, Abstract and Keywords: A Practical Guide to Maximize the Visibility and Impact of Academic Papers // Proceedings of the Royal Society B: Biological Sciences. – 2024. – P. 2-3.
7. Sollaci L. B., Pereira M. G. The Introduction, Methods, Results, and Discussion (IMRAD) Structure: A Fifty-Year Survey // Journal of the Medical Library Association. – 2004. – P. 364-367.
8. Swales J. M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – P. 140-141.
9. Yang R., Allison D. Research Articles in Applied Linguistics: Moving from Results to Conclusions // English for Specific Purposes. – 2003. – P. 365-383.